

## NEYROPSIXOLINGVISTIKA: RUHIY UYG'UNLIK, KOGNITIV DISSONANS VA NUTQ

**Bobokalonov Ramazon Rajabovich**

Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

E-mail : [boboramazon@yahoo.fr](mailto:boboramazon@yahoo.fr)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy lingvistikating eng yangi tarmog'i bo'lgan neyropsixolingvistika, inson ichki ruhiyati, kognitiv dissonans va lingvistik shaxs nutqi xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** neyropsixolingvistika, ichki ruhiy uyg'unlik, kognitiv dissonans, inson nutqi, vkrbal va noverbal nutq, sezgi, fikrlash qobiliyati, nutq o'lchamlari, tashqi va ichki nutq.

**Summary:** This article deals with neuropsycholinguistics, the newest branch of modern linguistics, human internal psychology, cognitive dissonance, and the characteristics of linguistic personality speech.

**Keywords:** neuropsycholinguistics, internal mental harmony, cognitive dissonance, human speech, verbal and nonverbal speech, intuition, thinking ability, dimensions of speech, external and internal speech.

### Kirish

Zamonaning tez va jadal rivojlanishi jamiyat ichidagi yetakchi figura bo'lgan lingvistik shaxs ruhiyatini o'zgartirishga sabab bo'lmoqda. Insonning barqaror ichki ruhiy uyg'unligi buzilishi oqibatida stress va turli xil asab kasaliklari – insult va infark bo'lish ehtimollari yildan yilga ko'payib bormoqda. Oila va jamiyat munosabatida, rahbar va xodim o'rtasida gap ko'tara olmaslik, qarorlarga itoat egmaslik, kibrga berilish, g'o'ddayish, baqrayib qarash holatlari sabablari ham aynan mana shu masalaga borib qadaladi. Jamiyatning keskinlashuvi inson salomatligiga putur yetkazadi. Ayniqsa, bugungi tibbiyot ham aqliy mehnat bilan shug'ullanadigan shaxslarda bu holat ko'proq uchrashini tasdiqlaydi. Kasalliklarning kelib chiqish sabablari esa internet tarmoqlarida joylashtirilayotgan shov-shuvli xabarlar, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy inqiroz hamda siyosiy faktorlar bilan ham izohlanadi. Bu neyropsixolingvistik hodisa inson nutqida aks sado berib turadi.

Til insoniyat jamiyatida tabiiy ravishda vujudga keladigan va rivojlanayotgan tizim bo'lib, shaxs tushunchalari va fikrlarining umumiyligini ifoda etishga qodir va birinchi navbatda aloqa munosabati uchun mo'ljalangan bo'ladi. Til – bu rivojlanish sharti va insoniyat madaniyatining mahsulidir. Gap – aniq nutq, vaqt o'tishi bilan va ovozli yoki yozma shaklda namoyon bo'ladi. Nutq deganda, nutq jarayoni va bu jarayonning natijasi tushuniladi, ya'ni nutq faoliyati va nutqning o'zi xotira yoki yozuv orqali o'rnatiladi.

Insonda turli xil achinish, qayg'urish, kuyinish, xursand bo'lish, g'azablanish, kibrga berilish, g'o'ddayish, baqrayish, nafratlanish, baxt va baxtsizlikni tuyish kabi emotsiyonal ruhiy holatlar verbal va noverbal nutq orqali diskursga chiqadi. Turli nutqiy vaziyatda yaxshi yoki yomon, ijobjiy yoki salbiy leksik birliklar ishlataladi, yoqimli yoqi yoqimsiz harakatlar bilan nutq u yoki bu darajada uyg'un reallashadi. Nutq orqali fikr-mulohaza, disput-munozara, suhbat va muhokama olib boriladi. Sog'lom muhitda, yaxshi va ta'sirchan nutqda inson kayfiyati

chog'lanadi, ruhan tetiklashadi, dunyoqarashi o'zgarib shakllanib boradi ; fikri teranlashadi, muhimi, e'tiqodi mustahkamlanadi. Aksariyat hollarda inson ruhiyatida qarama-qarshilik va ziddiyatlar ham kuzatiladi. Kognitiv dissonans atamasi mana shu o'rinda ikkita qarama-qarshi e'tiqod, qadriyatlар yoki munosabatlardan kelib chiqadigan ruhiy bezovtalikni tasvirlash uchun xizmat qiladi.

### Asosiy qism

Kognitiv dissonans nazariyasi bиринчи мarta 1957 yilda amerikalik psixolog Leon Festinger tomonidan odamlarning ichki ruhiy uyg'unlikka erishishga intilishlariga asoslanib taklif qilingan edi. U odamlarga o'z e'tiqodlari va hatti-harakatlarining izchil bo'lishini ta'minlash uchun "Kognitiv dissonans nazariyasi"ni yaratdi [5, 318]. Kognitiv dissonans<sup>187</sup> - bu qarama-qarshi e'tiqodlar to'qnashganda odamda yuzaga keladigan ichki ziddiyat. Bu dissonans keskinlik tuyg'usini keltirib chiqaradi; odam yoqimsiz his-tuyg'ularni boshdan kechiradi: tashvish, g'azab, uyat, ayb va turli yo'llar bilan noqulaylikdan xalos bo'lishga intiladi. "Kognitiv dissonans" tushunchasining tag mohiyati ijtimoiy psixologiyadan kelib chiqadi. Kognitiv dissonans (lotincha kognitio "fikr" va dissonantiya "dissonans", "uyg'unlik yo'qligi" so'zlaridan) – shaxsning ongida qarama-qarshi fikr-g'oyalar: g'oya va e'tiqodlar to'qnashuv natijasida kelib chiqqan ruhiy noqulaylik holati, qadriyatlар yoki hissiy reaktsiyalar majmui hisoblannadi. Aniqroq aytganda, inson o'z shaxsiy munosabatlarini to'g'ri o'rnatish uchun o'z idroki kesimida izchillikni izlaydi va bu to'qnashuvda kongitiv dissonans bezovtalikni keltirib chiqaradi. Demak, barchada ma'lum darajada kognitiv dissonansni boshdan kechirish tabiiy holdir. Dissonans, bu konflikt tug'diradigan ziddiyatlar kombinatsiyasidir. Agar bir vaqtning o'zida ikkita yoki undan ko'p tovush ta'sirini qabul qilib, tovush ta'sirida qandaydir taranglik yoki g'ashlik xususiyatini his qilinsa, bu dissonansdir. Kognitiv dissonans - bu qarama-qarshi e'tiqodlar to'qnashganda paydo bo'ladigan odamdag'i ichki ziddiyat. Odamlar tabiatan o'zlar, e'tiqodlari va tamoyillari bilan uyg'unlikda yashashga moyildirlar. "Kognitiv dissonans" tushunchasini oddiy so'zlar bilan aytganda, bu voqelik va u haqidagi g'oyalar o'rtasidagi qarama-qarshilik tufayli yuzaga kelgan yoqimsiz tuyg'udir.

Inson his-tuyg'ulari bilan bog'liq ba'zi neyropsixolingvistik dissonans bilan aloqador belgilari quyidagilar:

- Biror narsa qilishdan oldin o'zini noqulay his qilish (*bezovtalanish, besaramjom bo'lish, hayajonlanish, fikrlashda xatolik va tushunarsiz harakatlar*);
- Qabul qilgan qarorni yoki qilgan harakatinni oqlashga urinish (*Men qayerdan bilay? Biz qayerdan bilaylik? Bu mening ishim emas. Foyda bo'lsin dedik-da. Bilsak shu ishni qilarmidik?!*);
- Qilgan ishdan uyalib, o'z harakatlarini boshqa odamlardan yashirish (*Uzr, shu gap uning qulog'iga borib etmasin. O'ylamay ishga aralashib qoldiq. Iltimos ukam, boshliq eshitmasin...*);
- O'tmishda qilgan hato ish uchun aybdorlik yoki pushaymonlik sezish (*Qilgan ishiman dan pushaymonman. Aybdorman. Kamchilik mendan o'tgan edi...*);
- Ijtimoiy bosim yoki qo'rquv tufayli biror narsa qilish (Hey, tezroq. *Bo'linglar, hozir kelib qolishadi. Tagini tozalang. Tezda juftakni rostlang..*).

Kognitiv dissonansga olib keladigan ziddiyatlarni keltirib chiqaradigan turli xil holatlar mavjud: 1. **Majburiy bo'y sunish** va qoidalarga ko'r-ko'rona rioya qilish – ijtimoiy vaziyatga bog'liq bo'lgan tashqi taxminlar tufayli o'z e'tiqodiga zid bo'lgan hatti-harakatlarga duch kelinadi. 2. **Haddan ko'p informatsiyalar** kognitiv dissonans tuyg'ularini oshiradi va inson ruhiyatiga ta'sir

<sup>187</sup> Ruscha ma'nosi: Противоречие, разногласие, несоответствие, расхождение

etadi. 3. *Har kungi qarorlar* – odamlar o’z istaklaridan tashqarida katta va kichik qarorlar qabul qilishadi, bu holat ham inson ruhiyatining ta’sirchanligini oshiradi. 4. *Tashqi tia’sirlar* – odamlarning dissonanslik darajasi bir necha xil omillarga bog’liq bo’ladi. Dissonansning umumiy kuchiga ta’sir qiluvchi boshqa omillar ham bo’lishi – mumkin. Odamlar mantiqiy, izchil va qaror qabul qilishda ishonishni yaxshi ko’radilar. Kognitiv dissonans odamlarning qobiliyatları va tasavvurlariga xalaqt berib turadi, shuning uchun vaziyatda inson ko’pincha o’zini juda noqlay va yoqimsiz his qiladi. Bu holat insonning asab tizimining buzilishiga olib keladi [2, 284].

### Ilmiy tahlil

Sezgi va tuyg’u o’rtasida bog’liqlik mavjud. Sezgi — olamdagi narsa va hodisalar ayrim xossalaring miyadagi tahlili. Materianing sezgi a’zolariga ta’sir ko’rsatib, bosh miya po’stlog’i nerv markazini qo’zg’atishi asosida paydo bo’ladi. Sezgi dunyoni bilishning birinchi bosqichi va tarkibiy qismidir. Sezgilar asosida hissiy bilishning idrok, tasavvur kabi shakllari yuzaga keladi [11]. Sezgi – «sezmoq», tuyg’u – «tuymoq» fe’llarining o’zagidan yasalgan. Tuyg’u ham tashqi ta’sirni sezish, his etish qobiliyati, sezgining bir turidir. Inson tashqi olamga befarq emas. Bizning nazarimizda, inson eng avvalo, ko’rib sezadi va keyin idrok etib tuyadi.

Inson sezgisi ham ichki ruhiy uyg’unkilikning yorqin alomatidir. Inson jamiyat va siyosat markazida faoliyat olib borar ekan, atrofidagilarga e’tiborsiz emas. Shuning uchun ham sezgi dunyoni bilishning birinchi bosqichi va tarkibiy qismidir. Sezgilar asosida hissiy bilishning idrok, tasavvur kabi shakllari yuzaga keladi. Tashqi qo’zg’ovchilarning o’ziga xos xususiyatlari qarab, barcha sezgilar: *badan* (tuyish), *ko’rish*, *eshitish*, *hid bilish*, *ta’m bilish* sezgilarini va boshqa turlarga bo’linadi. *Sezgi* olamdagi narsa va hodisalar ayrim xossalaring miyadagi in’ikosidir. Materianing bosh miya po’stlog’i nerv markazini qo’zg’atishi va ta’siri ostida sezgi paydo bo’ladi. Sezgi fizik, fiziologik, psixologik jarayonlarda paydo bo’ladi. Fizik jarayonda narsa va hodisalar sezgi a’zolariga ta’sir etib, sezuvchi nervining chekka uchlarini qo’zg’aydi. Fiziologik jarayonda qo’zg’alish nervning o’tkazuvchi yo’li orqali bosh miya po’stining tegishli markaziy hujayralar tizimiga o’tadi. Psixologik jarayonning nerv qo’zg’alishida analizning sintezga aylanib borishi jarayonida sezgi paydo bo’ladi.

Sezgi a’zolari miya katta yarim sharlari faoliyati bilan bog’liq. Sezgilar joylashuv o’rniga ko’ra uch turga ajratiladi: 1) organizm sirtida bo’ladigan *ekstroretseptorlar* — ularga ko’rish, eshitish, hid bilish, ta’m bilish, tuyish sezgilarini kiradi; 2) tana ichidagi sezgilar *interoretseptorlar* — bularga ichak, jigar, o’pkadagi sezgilarini kiradi; 3) muskul, pay, boylamlarda bo’ladigan *proprioreceptordar*. Sezgilarning hammasi o’ziga xos xususiyat va qonuniyatlariga ega [9].

Abu Ali Ibn Sino sezish haqida shunday ta’rif bergan: «Sezish, bu shunday ta’sirki, u tashqi narsalarning o’zi bo’lmay, balki bizning hislarimizda vujudga keladi. His moddiy obrazning oynasi bo’lib, moddiy shakllarning bo’yi, eni bilan birga ifodalanganligi sababli, ularni inson moddiy asossiz in’ikos eta olmaydi va jismlarni bilolmaydi» [8]: U kishiga tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarning ta’sir etishi avvalo sezgilar orqali vujudga keladi deb uqtiradi va asosan beshta sezgi (ko’rish, eshitish, had bilish, maza va teri-tuygusi bilan sezish) borligini, ularning xususiyatlari va ahamiyati haqida to’xtalib har kaysi sezgining bosh miyada alohida boshqarib boradigan markazi bo’lishini ishonch bilan bayon etadi. Ibn Sino insonning fikrlash qobiliyatiga xayol-xotira va iroda sifatlariga yuqori baho beradi hamda bu psixik jarayonning bir-biri bilan mustahkam bog’liq ekanligini to’g’ri anglaydi. Tafakkurning kuchi shundaki, uning yordamida hodisa va voqealarni bir-biriga chog’ishtirish abstraktsiyalash bilan haqiqatni yolg’ondan ajratish – mumkin. «Xayol kishi ongida ob’ektiv voqelikning aks ettililishidir» – deydi Ibn Sino [1, 192]. «Xotira tomonidan qabul qilingan hodisalar xayolga o’tadi va hodisalarni xayol tafakkurga

o'tkazadi, tafakkur esa hodisalarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlab yana xotirada saqlab qoladi va kerak bo'lib qolganda yana unga murojaat qilinadi» [6].

Til qoidalarini o'zlashtirish nutq faoliyatini yaxshilaydi. Nutq nafaqat fikrni ifodalash usuli, balki uni shakllantirish usulidir. Suhbatdoshlarning ishtiroti yoki ishtirot etmasligi nuqtai nazaridan nutq: ichki va tashqi nutqqa ajratiladi. Tashqi nutq o'z navbatida: og'zaki va yozma nutqqa bo'linadi. Ichki nutq esa fikrlarni shakllantirishning mustaqil o'ziga xos usuli sifatida ajralib turadi. Ichki nutq fikrni loyihalashtirish jarayonidir. Uning ifodasi ham og'zaki yoki ham yozma holda amalga oshirilishi mumkin. Tuyg'ular ichiga sig'may birovga yozma izhor etilishi, ko'z qarashlari va imo-ishora bilan gaplashishi holatlari shu bilan izohlanadi. Demak, nutqni belgilaydigan jarayonlar til orqali ham, og'zaki fikrlashning abstraktsiyasining eng yuqori shakli bo'lgan ichki nutq yoki individual kod orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Nutq muloqot operatsiyasidir. Agar biror kishi gaplashmoqchi bo'lsa, u oldindan nutqini o'ylab rejalashtirishga majburdir. Puxta amalga oshiriladigan va muloqotga yaraydigan nutq miyada alohida sintez qilib olinadi. Nutq o'lchamlari, ta'sirchanlik darajasi, so'z tanlashda yumshoq va qattiqligi jihatidan tahlil qilinadi. Inson muloqot sharoitidagina aytgan gapining ta'sirini fikrlaydi. Nutq orqali tinglovchi shuuruga ta'sir etib, maqsadlarini yo'naltiradi. Yuqori ta'sirchan nutq har doim yozma tafakkurli nutqdir. U katta mahorat bilan aytilan fikr, hikmatli so'z, pandnoma asarga teng ifodalanadi. So'zlovchi uni tinglovchiga yetkazishdan oldin "qoralama" shaklda o'ylab, puxta rejalashtiradi va boshqa o'lchamlardan filtrlab, odamlar bilan muloqotga kirishadi. Bu qobiliyat erta yoshlikdan har bir odamga o'qish, yozish va kuzatish orqali avtomatlashib borishi maqsadga aylanishi shart. Aks holda bunday verbal hodisaga noverbal knesik vositalar qo'shilib, nutq dizayni buzulishi mumkin. Nutqqa ortiqcha dizayn berish esa bachkanalik yoki nutq chiraniishi deyiladi.

Darhaqiqat, inson munosabatlarining asosiy shakllaridan biri nutq kompetentsiyasi – imo-ishoralarning hamrohligi hisoblanadi. Tana tili yoxud insonning noverbal nutqiy harakatlari – imo-ishoralar og'zaki muloqot sharoitida nutq konfiguratsiyasini ta'minlashga ko'chib turadi. Ichki nutq ham o'ziga xos diskurs, uning orqali asosiy muloqot yoki axborot to'g'ri rejalashtiriladi. Uning vositasida fikr nutq amaliyotida tiniq chiqadi, tana tili chala nutqni butun ifodalash uchun imkon yaratadi. Bularsiz so'zlovchi nutqining aniqligi, kimga yo'naltirilgani yorqin namoyon bo'lmaydi: **"Kechirasiz, men bunday demoqchi emas edim"**, **"Til suyaksiz deydilar, o'ylamasdan aytib yuboribman"**, **"Tilim qursin, shuni o'ylamabman-da"**, **"Ha. O'z tilim bilan tutildim"**, **"Til bir parcha go'sht, meni kechiring, boy ota"** kabi nutqiy hosilalar o'ylamasdan gapirish natijasidir. Shuning uchun, har bir insonda nutq hissi bo'lishi kerak. Bu his neyropsixolinguistik hodisadir. Orzusiz orzu qilish, gapirmasdan turib gaplarni o'ylab ko'rishni o'rganish kerak. Zero "aniq o'laydigan kishigina aniq qilib aytadi" [Vigotskiy L.S.].

Nutqni tashqi (ovozi chiqarish) va ichki qismlar (ovozi chiqarmaslik)ga ajratish juda ahamiyatlidir. Ovozi chiqarmasdan ham gapirib bo'ladi. Ammo bu jarayonlarda tinglash, fikrlash vazifalari bir xil reallashmaydi. Ovozi chiqarish o'ziga xos tuzilishga ega bo'ladi va ona-bola nutqida shunday yangrashi mumkin: **"Gapir! Nega jimsan? Ovozing nega chiqmay goldi, ha o'lgur? Gapirmaysanmi, yaramas!"** Onaning bu darajaga yetib borishi bolaning ichki ruhiy olamini buzadi va e'tiqodini so'ndiradi. Ona bolaning jimligining sababini qidirayotgandek, ammo aslida uning ichki ruhiy olamini tushunmaydi. Bolaning nima o'layotganini idrok eta olmaydi. O'ylash ham o'ziga xos bir nutq shakli hisoblanadi. Bu bolaning ichki olamida – ichki nutqida taxminan shunday ravshanlashadi: **"Meni hamma yomon ko'radi: onam ham, otam ham, apakularim ham. Ular menga begona. Ular uchun men hech kimman. Gapirishim befoyda."**

*Gapisam, yana ko'proq daki yeyman. Katta janjal va urush bo'ladi. Ota-onam bilan yashagim kelmaydi. Meni faqat bobo-buvim tushunadi. Bu erdan qochib ketaman. Baribir, bobo-buvimnikiga boraman....”*

### Ilmiy mulohaza va mushohada

Tashqi (ovozli) nutq aloqa, ma'lumot almashish jarayoni bilan bog'liq, ammo ichki (ovozsiz) nutq bevosita aloqa vositasi emas. Uni hamma bir xil o'qib olavermaydi. Ichki nutqning asosiy vazifasi o'ylash, fikrlash, idrok etish va nutqiy konfiguratsiya faoliyatini tartibga solish jarayonini ta'minlashdir. Ichki nutqning namoyon bo'lishi muammolarni hal qilishda, nutqni mantiqan rejalashtirishda yoki matnlarni o'qiyotganda aniqroq bilinadi. Ichki nutq vizual tasvirlar va odatiy belgilar bilan guruhanadi. Ichki nutqda ma'lumotlar tartibga solinadi: so'zlar va iboralardan tashkil topgan umumlashtirilgan semantik majmua hosil bo'ladi. Nutq egasi qiyinchiliklarga yoki qarama-qarshiliklarga yuz tutsa, uning ichki nutqi yanada batafsil xarakterga ega bo'ladi : nutq egasining ichki monologida, shivirlashida birdaniga portlash, baland ovozga gapirishi kuchayadi. Ba'zan aksincha, «tili kalimaga kelmaydi ».

Nutqning umumiy xususiyati, odatda, uning tilga ziddiyatda qo'yilishi bilan asoslanadi. Til nutq orqali reallashadi. Til va nutq yagona kommunikativ diskurs hodisasini hosil qiladi. Agar til aloqa vositasi bo'lsa, nutq shu vosita tomonidan yuzaga chiqadigan aloqa shaklidir. Til belgilar tizimi bo'lsa, nutq uning ifoda materialidir. Nutq ruhiy holat yordamida mujassamlashadi. Demak, nutq – bu kommunikativ maqsadni amalga oshiradigan tilning individual holatidir [4]. Nutq bu so'zlar ketma-ketligi, chiziqli ierarxik munosabatlar darajaviy tartibiga ega. Nutq avtomatlashib borish xususiyatiga egadir ; nutq oqimida so'zlar birlashadi, til ularning o'ziga xosligini ta'minlab turadi. Gap – nutq parchasi. Gapning hosil bo'lishi haqiqat yoki yolg'onlardan iborat voqelik ob'ektlari bilan bog'liqidir. Nutqning aniqligi madaniy nutqning asosiy tamoyilidir. Suhbatdosh ushbu vaziyatni qanchalik aniq tasvirlasa, uning tavsifi haqiqatga yaqin va mos keladi. Ob'ektiv aniqlik nutq va voqelik o'rtaсидаги bog'liqliкка asoslanadi.

Nutq aniq va o'ziga xos, til esa mavhum va takrorlanuvchan bo'ladi. Nutq mobil, til barqaror; nutq cheksiz, til tizimi muayyan komponentlar to'plami bilan cheklangan bo'ladi. Bu holat ob'ektiv va kontseptual aniqlikni farqlab olishga, gapning tushunarli chiqishiga yordam beradi. Kontseptual aniqlik esa nutq va fikrlashning o'zaro bog'liqligi bilan belgilanadi.

Nutq mavzusini bilish, muloqotni amalga oshirishga yordam beradigan asosiy shart hisoblanadi. Yaxshi gapisish qobiliyati nutqning aniqligi va bir vaqtning o'zida uning mantiqiyligiga ham bog'liqidir. Nutqni umumiy shartlari uning tuzilishi, tashkil etilishi, tarkibi va izchilligidadir. Mantiqiy fikrga ega bo'lish, shuningdek, tilni bilish, til vositalarining kommunikativ imkoniyatlariga ahamiyat berish miyaning normal ishlash funktsiyalariga bog'liq bo'ladi. Nutqning ta'sirchanligi tinglovchilarning qiziqishi va e'tiborini tortishga yordam beradi. Buning uchun nutq so'zlovchisining mustaqil fikrlashi va tilni yaxshi bilishi, uning ifodalash qobiliyatları rivojlangan bo'lishi talab etiladi. Nutq odob, aql-idrok va axloqiy me'yorlarga mos bo'lishi zarur, ya'ni maqsadga, aloqa sharoitlariga, tinglovchilarning tarkibi va kayfiyatiga mos kelishi darkor. Nutq mavjudligining tashqi va ichki, og'zaki va yozma shakllarini, dialogik va monologik nutqni, nutqning funktional-semantik turlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradigan turli omillar mavjud.

Semantika matnning mazmuniy planini va kompozitsiya esa matnning tarkibiy xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Matn turlari quyidagicha ajratiladi *tavsif, mulohaza, rivoyat*. Odamlar o'rtaсидаги aloqa munosabati turli shakllarda sodir bo'lishi mumkin: qo'lyozma hujjat, rasmiy qog'ozlar, yo'l belgilari, og'zaki muloqot turida : suhbat, bahs, munozara, disput

kabi turli xil o 'lchamlarda. Muloqotda turli xil ijtimoiy, shaxsiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lган turli xil odamlar qatnashishi mumkin. Muloqot ishtirokchilari dialog va monologda faol yoki passiv darajada ishtirokchiga aylanishi mumkin.

Kundalik hayotda inson o'z mas'uliyatini, oila va bola tarbiyasini bir dam unutib qo'yish holatlari ko'p uchraydi. Shuning oqibatida kichik yoshdagi bolalarda *fobiyadan* tashqarida ko'pincha turli (*qorong'ilikdan*, *yolg'iz qolishdan*, *oq va qora xalatdan*, *ukoldan*) qo'rquvlar sababli nevrotik reaktsiyalar sodir bo'ladi. Qo'rquv natijasida ruhiy zarba oladi, miyadagi o'zgarishlar nutq ravonligiga ta'sir etadi [3 ; 4]. Bolalarning ruhiy tushkunlik, qurquv va boshqalardan ajralib qolishining yagona vositasi ularni qo'rquv hissidan chalg'itish, hodisalarni unutish uchun o'yin mashg'ulotlari tashkil etishdir. O'yin mashgulotlari bolalarni bir-biriga yaqinlashtirishga yordam beradi. O'yin davomida kichik hajmdagi qo'shiqlar, raqlar, tana harakatlari, she'r aytishlar, tezaytishlar va epizodik kichik qiziqarli sahnalar orqali amalga oshirish nutqni tiklash va yaxshilashga katta yordam beradi. Bosh miya qobig'ining diffuz (yo'ilgan) kurinishi aqliy rivojlanish buzilganilagini va organik shikastlanish borligini ko'rsatadi. Aqliy rivojlanmaganlik nuqsoni ikki oliy psixik funksiyani – xulq va faoliyatning buzilishiga olib keladi. Bu holat bilish jarayonlarini (sezgi, idrok, xotira, diqqat, fikrlash, tasavvur etish, nutq, e'tibor) buzilishida, hissiy iroda sohasi, motorika, umuman shaxs hatti-harakatlarida o'z ifodasini topadi [7].

### Xulosa

Gapirolmaslik, g'ayritabiiy harakatlar, o'sishdan orqaga qolish, tinglashni xohlamaslik, o'z olami bilan yashashga intilish, zarur holatlarga atrofidagilarga befarq bo'lish va gapiga reaktsiya bermasligi kabi ruhiy charchoq holatlari butun oila uchun ko'ngilsizlik hisoblanadi. Neyropsixolingoistika ana shu muammolarga yechim topishga amaliy yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, *ichki ruhiy uyg'unlik, kognitiv dissonans va nutq sharoiti* neyropsixolingoistika oldida katta mas'uliyat yuklaydi. Buni erta yoshdan kuzatish, davolash va tarbiyalash imkoniyati mavjud. Aksincha, e'tiborsizlik, shoshmashosharlik, bilimsizlik, ko'r-ko'rona harakatlar bola uchun noxush va og'ir iztirob, oila uchun umidsizlikka sabab bo'lishi mumkin.

Ota-onal tibbiyot xodimlariga, psixolok va nevrologlarga ishonmay qo'yishi, kasal bolaning ota-onasini bilimsizlikda, ehtiyyotkor bo'lmanlikda, o'z vaqtida g'amxo'rlik qilmaganlikda ayblast holatlari hamadolatdan bo'lmaydi. Zero, inson sog'ligidan, uning to'laqonli jamiyat a'zosini bo'lismashga yordam berishdan sharafla va og'ir vazifa yo'q. Rivojlanayotgan Yangi O'zbekiston uchun jamiyat talablari oldida har qanday shaxsni yetuk inson darajasida tarbiyalash, uni muhofaza qilish davlat oldida ham, fan sohasida ham mas'uliyatlari bo'lismashni, kelajakka befarq bo'lmaslikni taqazo etadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abu Ali ibn Sino. Tibbiy o'gitlar, «Mehnat» nashriyoti, 1991. -192 b. ISBN: 5-8244-0812-2
2. Bobokalonov R. O'zbekcha-frantsuzcha semantik-funksional shakllangan gaplarning differentsiatsiyasi va kommunikativ neyropsixolingoistik tadqiqi. Filol. fan. dokt. dissert. Buxoro, 2022, -3-284 b.
3. Бобокалонов Р.Р. Нейропсихолингвистика: языковая личность и харизматичный человек (Теория, практика и методология). Monografiya, LAMBERT Academic Publishing, Shisinau, Moldavia-Europe, 2023. 230 s. ISBN 978-620-6-15214-9

4. Bobokalonov R.R. Neyropsixolinguistica: xarizmali shaxs qobiliyati. Monografiya, LAMBERT Academic Publishing, Shisinau, Moldavia-Europe, 2024. ISBN : 978-620-6-79722-7
5. Фестингер Л. Теория когнитивного диссонанса /A theory of cognitive dissonance. SPb.: YUventa, 1999. -318 s. ISBN 5-87399-129-4.
6. Fayziev YA.M., Eshboev E.H. Umumiylar va tibbiy psixologiya, Toshkent, Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyat nashriyoti, 2003.
7. <https://cyberleninka.ru/xamraeva> Intellektual kamchiliklari bo'lgan aqli zaif bolalarni tarbiyalash masalalari
8. [www.uzm.qomus.info>](http://www.uzm.qomus.info)
9. [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz): Abu Ali ibn Sino
10. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sezgi>